



CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




***2022- yil yanvar-fevral holatiga
ko'ra dastlabki ma'lumot***


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Uyushmagan savdo

Tarkibiy qism, foizda

68,3



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

22,7



Yirik korxonalar

9,1



Uyushmagan savdo

Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **37 070,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **13,3** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **8 401,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **154,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **25 310,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,2** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **3 357,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,5** %) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm

Dehqon bozori

1 454,7

43,3 %

Chorva bozori

1 903,0

56,7 %

Jami Uyushmagan savdo

3 357,7

100 %


HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **37 070,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **113,3** % ni tashkil etdi.

Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **77,3** % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **22,7** % yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 24,1 % ulush bilan 8 935,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Sirdaryo viloyati 1,7 % ulush bilan 615,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.





CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan respublikaning Xorazm (**126,0 %**), Jizzax (**123,3 %**), Toshkent (**119,0 %**) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyatida qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	37 070,2	113,3	8 401,7	154,5	25 310,8	104,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 231,5	114,1	128,8	210,8	972,0	107,6
<i>viloyatlar :</i>						
Andijon	2 716,2	110,9	364,3	155,2	2 020,8	104,4
Buxoro	2 164,4	116,9	402,9	224,1	1 551,8	104,1
Jizzax	1 505,8	123,3	320,0	334,9	919,1	103,5
Qashqadaryo	2 349,6	109,4	206,9	174,7	1 814,6	103,6
Navoiy	1 441,8	119,0	304,8	285,6	1 067,6	102,0
Namangan	2 125,0	110,2	200,5	137,3	1 651,6	107,7
Samarqand	3 089,9	111,9	792,1	134,3	1 994,7	104,7
Surxondaryo	2 371,4	108,8	176,6	167,5	1 732,9	105,2
Sirdaryo	615,4	108,9	43,2	163,9	514,1	106,3
Toshkent	4 008,8	117,7	1 111,0	268,1	2 598,4	95,3
Farg'ona	2 911,0	111,5	363,7	173,7	2 325,5	105,8
Xorazm	1 604,4	126,0	407,3	283,8	953,9	105,0
Toshkent sh.	8 935,0	111,5	3 579,6	119,2	5 193,6	106,7



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **54,5 %** ga o'sdi va **8 401,7 mlrd.** so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **22,7 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **25 310,8 mlrd.** so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **4,2 %** ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **68,3 %** ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sirdaryo (**93,0** %), Surxondaryo (**92,6** %), Qashqadaryo (**91,2** %), Namangan (**90,6** %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **22,7** % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (**40,1** %), Toshkent (**27,7** %), Xorazm (**25,4** %) va Samarqand (**25,6** %) viloyatlarida kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar


AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 061,7** ming so'mni (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **11,1** % ga oshdi) tashkil etdi.

Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi	1 061,7	111,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	636,1	112,7
Andijon	843,3	108,8
Buxoro	1 103,2	115,3
Jizzax	1 055,3	120,7
Qashqadaryo	696,8	107,3
Navoiy	1 408,4	116,9
Namangan	732,9	107,9
Samarqand	774,5	109,7
Surxondaryo	874,4	106,5
Sirdaryo	707,6	106,9
Toshkent	1 374,4	119,0
Farg'ona	754,5	109,4
Xorazm	840,6	124,1
Toshkent sh.	3 169,1	104,4

Eng yuqori hajmga ega hududlar





Eng past hajmga ega hududlar



* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Toshkent shahri (**3 169,1** ming so'm), Toshkent (**1 374,4** ming so'm) va Navoiy (**1 408,4** ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **3 357,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **12,5%** ga oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 454,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **116,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 903,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **119,5 %**) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	3 357,7	112,5	1 454,7	116,8	1 903,0	109,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	130,7	114,2	66,7	117,4	64,0	111,2
viloyatlar:						
Andijon	331,1	118,9	113,0	120,6	218,1	118,0
Buxoro	209,7	115,6	102,6	111,7	107,1	119,5
Jizzax	266,7	112,3	103,0	162,6	163,7	94,1
Qashqadaryo	328,1	117,8	164,1	111,4	164,0	124,9
Navoiy	69,4	117,9	37,6	120,4	31,8	115,0
Namangan	272,8	109,3	106,4	122,2	166,4	102,4
Samarqand	303,1	113,5	71,5	104,1	231,6	116,8
Surxondaryo	461,9	108,4	174,4	120,4	287,4	102,2
Sirdaryo	58,2	105,6	23,8	149,0	34,3	87,9
Toshkent	299,4	112,2	117,3	108,2	182,1	115,0
Farg'ona	221,8	109,3	110,2	106,1	111,6	112,5
Xorazm	243,2	109,9	112,7	111,8	130,5	108,2
Toshkent sh.	161,8	110,0	151,5	114,5	10,3	69,5

2022- yilning yanvar-fevral oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **1 454,7** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **1 903,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda


* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 454,7 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**667,4 mlrd. so'm**) to'g'ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 903,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **1 462,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **366,3** mlrd. so'mni, otlar **63,7** mlrd. so'mni, parrandalar **10,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **3,4 %** ni tashkil etib, **1 253,8** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **14,6 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **77,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	1 253,8	114,6	279,3	154,3	974,5	106,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	29,8	105,2	1,3	132,1	28,5	104,2
viloyatlar:						
Andijon	39,0	104,8	0,0	0,0	39,0	106,2
Buxoro	72,5	107,2	7,5	115,3	65,1	106,3
Jizzax	26,3	102,2	0,0	-	26,3	102,2
Qashqadaryo	58,4	101,3	2,1	92,8	56,2	101,7
Navoiy	37,1	115,7	6,6	225,7	30,5	104,7
Namangan	37,6	105,1	0,1	2,6	37,5	119,6
Samarqand	83,7	118,0	30,7	240,4	53,0	91,1
Surxondaryo	46,5	99,9	1,3	31,1	45,2	106,6
Sirdaryo	16,7	106,4	0,0	-	16,7	106,4
Toshkent	109,0	105,1	20,7	93,8	88,2	108,1
Farg'ona	59,6	108,5	2,3	80,3	57,3	110,1
Xorazm	22,2	103,6	0,0	0,0	22,2	116,7
Toshkent sh.	615,3	127,4	206,7	179,2	408,6	111,1

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI




2021- yilning yanvar-fevral oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **0,3 %** dan **0,5 %** ga ko'paygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **1 253,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **114,6 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **1 246,8** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**99,5 %**) hamda **7,0** mlrd. so'm (**0,5%**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	1 253,8	100,0	1 246,8	99,4	7,0	0,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	29,8	2,4	29,7	99,7	0,1	0,3
Andijon	39,0	3,1	39,0	100,0	-	-
Buxoro	72,5	5,8	72,5	100,0	0,1	0,1
Jizzax	26,3	2,1	26,2	99,6	0,1	0,4
Qashqadaryo	58,4	4,7	58,4	100,0	-	-
Navoiy	37,1	3,0	36,4	98,1	0,7	1,9
Namangan	37,6	3,0	37,5	99,7	0,2	0,5
Samarqand	83,7	6,7	83,6	99,9	0,1	0,1
Surxondaryo	46,5	3,7	46,5	100,0	-	-
Sirdaryo	16,7	1,3	16,7	100,0	-	-
Toshkent	109,0	8,7	108,7	99,7	0,2	0,2
Farg'ona	59,6	4,8	59,6	100,0	-	-
Xorazm	22,2	1,8	22,2	100,0	-	-
Toshkent sh.	615,3	49,1	609,7	99,1	5,5	0,9

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **18 959,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **12,2 %** ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaragan da **13098,7** mlrd. so'mni tashkil qilgan, bu esa 2021- yil mos davriga nisbatan **11,9 %** ga oshgan. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdodagi ulushi **69,1 %** ni tashkil qilgan.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	18 959,4	112,2	5 860,7	112,8	13 098,7	111,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	220,0	97,5	40,8	70,8	179,1	106,7
viloyatlar:						
Andijon	492,5	84,9	49,7	30,7	442,8	106,0
Buxoro	696,6	115,5	262,6	113,8	434,1	116,6
Jizzax	326,4	104,2	53,4	108,5	273,0	103,4
Qashqadaryo	381,3	94,7	43,9	43,0	337,4	112,2
Navoiy	216,0	106,7	41,2	140,7	174,8	101,0
Namangan	605,9	113,2	75,6	77,8	530,3	121,1
Samarqand	992,6	99,3	209,9	68,4	782,7	113,0
Surxondaryo	387,4	104,8	71,5	93,5	315,9	107,7
Sirdaryo	299,6	102,6	17,8	123,9	281,8	101,5
Toshkent	1 339,0	103,4	406,9	93,6	932,1	108,4
Farg'ona	1 064,9	105,8	48,8	86,7	1 016,1	106,9
Xorazm	352,7	106,4	53,2	90,1	299,5	110,0
Toshkent sh.	11 584,4	119,0	4 485,4	127,6	7 099,0	114,2


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Buxoro (**115,5 %**), Namangan (**113,2 %**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**119,0 %**) kuzatildi.




MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,1 %** ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **18 959,4** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **18 941,6** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **17,8** mlrd.so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hali ham Toshkent shahrida (**0,15 %**), Navoiy (**0,16 %**) va Andijon (**0,05 %**) viloyatlarida saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi
Тел.: 71-202-80-42 (43)